

O'QUVCHILARDA NUTQ O'STIRISHGA DOIR TAVSIYALAR

Norbutayeva Chehrona Akbarjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TA'Uning 3-kur talabasi

chehronanorbutayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda nutq uslublarining o'rni va ularni o'rgatish metodlari tahlil qilinadi. Nutq uslublarini to'g'ri tanlash orqali o'quvchilarning muloqot madaniyati va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib beriladi.*

Abstract: *This article analyzes the role of speech styles in the formation of oral and written speech in students and the methods of teaching them. It shows ways to develop students' communication culture and creative thinking skills through the correct choice of speech styles.*

Kalit so'zlar: *nutq uslubi, o'quvchi nutqi, ilmiy uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub, muloqot madaniyati.*

Keywords: *speech style, student speech, scientific style, artistic style, formal style, communication culture.*

Kirish

Nutq — bu fikrni ifoda etish va uni boshqalar bilan baham ko'rish vositasidir. Maktab ta'limi jarayonida o'quvchilarda to'g'ri, aniq va maqsadga muvofiq nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa, o'z navbatida, turli nutq uslublarini o'rgatish va ular asosida mashg'ulotlar olib borishni talab etadi. Uslub arabcha so'z bo'lib, tartib, sistema demakdir. O'zbek tilida bu so'z ma'nosining qamrovi asliga nisbatan bir qadar kengroq bo'lib, “biror faoliyatni bajarishdagi, boshqarishdagi o'ziga xos yo'l” yoki “biror narsa yoki hodisa uchun xos bo'lgan xususiyatlar” kabi ma'nolari ham mavjud. Tilshunoslikda “uslub” atamasi zahirida tilning alohida ma'no anglatish va ifodalash maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik, sintaktik va frazeologik

vositalari tushuniladi. Tilshunoslikning tildan foydalanish usullarini o'rganuvchi tarmog'i stilistika, ya'ni uslubiyat deb yuritiladi. Demak, uslubiyat tilshunoslik fanining alohida sathi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalaridan maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin: "uslubiyat" atamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi. U, avvalo, til vositalaridan nutqda o'rinli va maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni anglatadi. Ayni zamonda til vositalarini nutqda tanlab ishlatish qonun-qoidalarini o'rganadigan fanning nomini ham bildiradi¹.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda quyidagi asosiy nutq uslublariga e'tibor qaratish muhim:

1. Ilmiy uslub

Ilmiy uslub yordamida o'quvchilar ilmiy tushunchalarni aniqlik bilan ifodalashni, fikrni mantiqiy izchillikda bayon qilishni o'rganadilar. Bu uslub referat, prezentatsiya va maqola yozish orqali mashq qilinadi. Ilmiy uslub tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

2. Badiiy uslub

Adabiyot darslari davomida o'quvchilar badiiy matnlar bilan tanishadilar. Badiiy uslub orqali obrazli ifodalar, metafora, tashbeh, epitet kabi badiiy vositalarni o'rganib, o'z nutqlarida ularni qo'llashga harakat qiladilar. Bu uslub ijodiy fikrlash va estetik didni rivojlantiradi.

3. Rasmiy uslub

Rasmiy nutq uslubi orqali o'quvchilar ariza, bayonot, e'lon, xat yozish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Bu uslub rasmiy muloqot qoidalarini tushunish va ularga amal qilishni o'rgatadi.

4. Og'zaki uslub

Og'zaki nutq uslubi kundalik muloqotda qo'llaniladi. Mashg'ulotlarda bahs-munozara, suhbat va rolli o'yinlar orqali bu uslubni rivojlantirish mumkin.

"4 x4" metodi

¹ D.N. Yuldasheva. "O'zbek tilini o'qitish metodikasi". – Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b. 355-bet.

4 ta guruh

4 tadan ishtirokchi

4 ta mavzu

4 daqiqa vaqt

O'quvchilarga o'tilgan 4ta mavzuni bo'lib berasiz. Shu mavzu asosida reklama tayyorlashadi. Mavzuni reklama qilishadi.

Qaysi guruhning reklama mavzusi yutsa, o'sha guruh darsni olib boradi. Mavzuni tushuntirishadi.

Ba'zan darslarni noodatiy uslubda tashkil etish samaral bo'ladi. O'quvchilarda liderlikni, mustaqillikni rivojlantirish uchun binar mashg'ulotlarini tashkillashtirish samaralidir. Pedagogika sohasiga qiziqadigan o'quvchilar uchun esa ayni muddao. Qolaversa, nutqiy qobiliyat, omma oldida o'zini tutish shakllanadi. Jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlanadi.

Nutq madaniyati – insoniyat umummadaniyatining bir qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Nutq jarayonida yuksak axloqiy me'yorlarga rioya qilish, ta'sirchan, chiroyli va o'rinli so'zlash, tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, bahs-munozara madaniyati, tildan nutqda e'tibor va ehtiyotkorlik bilan foydalanish shoirona so'zlar bilan aytganda “har bir so'zni yor tanlagandek” saylab ishlatish nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Uslubiyat bilan nutq madaniyati aynan bir narsa emas, ular bir-birini taqozo etuvchi, bir-birini to'ldirib, yuksaltirib boradigan alohida-alohida hodisalardir².

“Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o'quvchlarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z bilimlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan

² D.N. Yuldasheva. “O'zbek tilini o'qitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b. 355-bet.

o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi.

O'quvchilarga ilmiy, badiiy, publissistik, rasmiy va so'zlashuv uslubiga oid matnlar beriladi va ularni tezkorlik bilan qaysi uslubga tegishli ekanligini aytishlari lozim bo'ladi.

“Transformatsiya” (o'zgartirish) metodi

Metod mazmuni:

Ushbu metodda o'quvchilarga biror matn ma'lum nutq uslubida beriladi va ular uni boshqa nutq uslubiga o'zgartirish vazifasini bajaradilar. Bu metod o'quvchilarni har bir uslubga xos til vositalarini ongli tanlashga, nutq funksiyasini tushunishga va ijodiy fikrlashga o'rgatadi.

Metodni qo'llash tartibi:

1. O'quvchilarga matn beriladi (masalan, badiiy uslubda yozilgan hikoya).
2. Topshiriq beriladi: “Ushbu matnni ilmiy (yoki rasmiy, publitsistik) uslubga moslab qayta yozing.”

3. O'quvchi quyidagi elementlarga e'tibor beradi:

Leksik vositalar (so'z tanlovi),

Gap tuzilishi (oddiy/murakkab, qisqa/uzoq),

Emotsionallik darajasi, uslubga xos iboralar (terminlar, rasmiy ifodalar, tasviriy vositalar).

Amaliy misol: publisistik matn:

“O'rmon jimjit edi. Barglar shivirladi. Quyon mo'ralab atrofga qaradi va bir sapchib g'oyib bo'ldi.”

Transformatsiya (badiiy uslub):

“O'rmon hududida atrof tabiiy sukunat bilan ajralib turadi. Daraxt barglarining harakati fonida hayvonlarning tezkor reaksiyasi kuzatiladi, masalan, quyonning xavfga javoban o'rni o'zgarishi.”

Afzalliklari:

Har bir uslubga xos til va uslubiy vositalarni ongli o'zlashtirish imkonini beradi.

O'quvchi uslublararo farqni chuqur tahlil qiladi.

Nutqni kontekstga moslashtirish malakasi rivojlanadi.

Soʻz boyligi ortadi, nutq moslashuvchan boʻladi.

Xulosa

Turli nutq uslublarini tizimli oʻrgatish oʻquvchilarning soʻz boyligini oshiradi, fikrni aniq ifoda etish, muloqotda erkin boʻlish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Oʻqituvchilar tomonidan nutq uslublariga doir interaktiv metodlar qoʻllansa, oʻquvchilarda nutq madaniyati mustahkam shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Gʻulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va boshq. Ona tili oʻqitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 bet.
2. D.N. Yuldasheva. “Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi”. – Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.
3. B.Toʻxliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000. 3. Tolip ov Oʻ. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2005.